O‘zbekiston Respublikasi
Energetika vazirining
2025-yil 4-avgustdagi
85-son buyrug‘i bilan
“TASDIQLANGAN”

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI HUZURIDAGI “MILLIY DISPETCHERLIK MARKAZI” DAVLAT MUASSASASINING NIZOMI

TOSHKENT-2025

I. UMUMIY QOIDALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi “Milliy dispetcherlik markazi” davlat muassasasining (keyingi o‘rinlarda – Markaz deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 7 avgustdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil 7 fevraldagi “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 21 iyuldagi 302 son qaroriga asosan tashkil qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzurida “Milliy dispetcherlik markazi” davlat muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan valyuta hisob raqamlariga, emblemaga, shtamplarga va blankalarga, tovar belgilariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va boshqa rekvizitlarga ega.

3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi “Milliy dispetcherlik markazi” davlat muassasasining rasmiy to‘liq va qisqartirilgan nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi – O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi “Milliy dispetcherlik markazi” davlat muassasasi;

qisqartirilgan nomi: “MDM” DM;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – gosudarstvennoe uchrejdenie “Natsionalnыy dispetcherskiy sentr” pri Ministerstve Energetiki Respubliki Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi GU “NDS”

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi – State Institution “National Dispatch Center” under the Ministry of Yenergy of the Republic of Uzbekistan

qisqartirilgan nomi – SI “NDC”

4. Markaz joylashgan yuridik manzili (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi Markazning asosiy boshqaruv pulti Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Istiqbol ko'chasi, To'ytepa MFY, 21-uyda manzildagi binoda.

5. Markazning muassisi: O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (keyingi o‘rinlarda “Muassis” deb yuritiladi).

6. Markaz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan shartnomalar tuzishi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni sotib olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi, nizolarni hal etishda boshqa organlarda vakillik qilishi mumkin.

Markaz amaldagi talablariga ko‘ra qayta davlat ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi.

7. Markaz qonunchilikka muvofiq yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan tijorat tashkilotlarida, shuningdek notijorat tashkilotlarida qatnashchi (a’zo) bo‘lishi mumkin.

8. Markaz boshqa davlat korxonasining muassisi bo‘lishi mumkin emas.

9. Markaz nomuayyan muddatga tuzilgan.

II. MARKAZ FAOLIYATINING PREDMETI VA MAQSADLARI

10. Muassisning topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash, shuningdek ushbu nizomda ko‘rsatilgan boshqa ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish Markaz faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

11. Quyidagilar Markaz faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yagona elektr energetika tizimiga ulangan korxonalarning real vaqt rejimlarida, markazlashtirilgan tarzda uzluksiz tezkor-dispetcherlik boshqaruvini amalga oshirish va uning ishonchli ishlashini ta’minlash;

elektr energiyasiga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqib, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uning iste’mol qilinishiga ta’sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olgan holda uni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning har soatlik rejimini shakllantirish;

yagona elektr energetika tizimining texnik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul rejimlarda ishlashini ta’minlash;

yagona elektr energetika tizimining qo‘shni davlatlar energetika tizimlari bilan parallel ravishda ishlash rejimini boshqarish;

Markaz xodimlarining xorijda doimiy ravishda malaka oshirishini ta’minlash hamda malakali xorijiy mutaxassislarni Markazga jalb qilish;

avariya rejimi yuzaga kelishining oldini olish, shuningdek uni bartaraf etish va avariya rejimi bartaraf etilganidan keyin tizimning ishonchliligini tiklash;

12. Markaz o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun, quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

a) mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yagona elektr energetikasi tizimiga ulangan korxonalarning real vaqt rejimlarida, ya’ni markazlashtirilgan tarzda uzluksiz tezkor-dispetcherlik boshqaruvini amalga oshirish va uning ishonchli ishlashini ta’minlash sohasida:

elektr energetika ob’ektlarining tezkor-dispetcherlik boshqaruvini amalga oshirish, shuningdek yagona elektr energetikasi tizimining boshqa davlatlar elektr energetikasi tizimlari bilan hamkorligini ta’minlash;

yagona elektr energetika tizimidagi mavjud barcha zaxiralardan foydalanish orqali davlatlararo kelishilgan quvvat oqimlarini hisobga olgan holda elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilish balansini ta’minlash;

yagona elektr energetika tizimidagi mavjud elektr energiyasining ishlab chiqarish va turg‘unlik zaxiralari doirasida yuklama va davlatlararo elektr energiyasi oqimlari rejasini bajarilishini ta’minlash;

elektr energiyasi va quvvat ishlab chiqarish, uzatish va iste’mol qilish rejimlarini boshqarish, elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi, magistral elektr tarmoqlari, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va yirik elektr energiya iste’molchilarning texnologik faoliyatini muvofiqlashtirish;

o‘zaro kelishilgan yo‘riqnomalarga asosan “Energiya” Koordinatsion dispetcherlik markazining (keyingi o‘rinlarda “Energiya” KDM deb yuritiladi) topshiriq va ko‘rsatmalariga muvofiq yagona elektr energetika tizimining davlatlararo kunlik rejalashtirilgan elektr energiyasi va quvvat oqimlarining qiymatlarini o‘zgartirishini ta’minlash;

Markaziy Osiyo birlashgan elektr energetika tizimida davlatlararo elektr energiyasi va quvvat oqimlariga ta’sir etuvchi elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalarning yuklamasini o‘zgartirishini ta’minlash;

davlatlararo elektr energiyasi va quvvat oqimlarini kelishilgan qiymatini ta’minlash uchun energotizimda mavjud zaxira quvvatlarini ishga solish;

yagona elektr energetika tizimining Markaziy Osiyo yagona elektr energetika tizimi orasidagi saldo oqimlar jadvallari tuzilishida ishtirok etish va uning bajarilishini ta’minlash;

o‘tgan kun uchun energotizim elektr energiya iste’moli va ishlab chiqarish jadvallarini tahlil qilish hamda saldo oqimlar og‘ishini aniqlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish;

elektr energetika ob’ektlarida o‘rnatilgan rele himoya va avariyaga qarshi avtomatika uskunalarini texnik soz holatda ishlashini nazorat qilish;

yangi qurilayotgan elektr energetika ob’ektlarining loyihalarini ishonchlilik talablari, rele himoya hamda avariyaga qarshi avtomatika bo‘yicha prinsipial yechimlari qismida ko‘rib chiqish va kelishish;

Markaz va uning mintaqaviy boshqarma va hududiy bo‘limlari tezkor tasarrufida va qaramog‘ida bo‘lgan elektr qurilmalarida sodir bo‘lgan avariya holatlarini bartaraf etishda rahbarlik qilish;

Markaz va uning mintaqaviy boshqarmalari tomonidan yagona energetika tizimida sodir bo‘lgan avariyaviy holatlar bo‘yicha ma’lumotlarni zudlik bilan *(10 daqiqa ichida)* Energetika vazirligining Markaziy dispetcherlik bo‘limiga kiritib borishni ta’minlash;

rele himoya va avariyaga qarshi avtomatika, dispetcherlik-texnologik boshqaruv vositalari qurilmalarining kunlik ishlash holatlarini tahlil qilish;

yagona elektr energetika tizimi elektr tarmoqlari ob'ektlarining, shu jumladan, yangi ob'ektlarni ishga tushirish bilan bog'liq holatlar uchun asosiy sxemalar va elektr rejimlarini ishlab chiqish;

yagona elektr energetika tizimini tezkor boshqarish, rele himoya hamda avariyaga qarshi avtomatika qurilmalari bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish va o'z vaqtida qayta ko'rib chiqishni nazorat qilish;

yagona elektr energetika tizimining haqiqiy quvvat oqimlari, tarmoq elementlarining yuklanishi, asosiy nazorat nuqtalarida kuchlanish qiymatlarini va avtomatik chastotaviy yuksizlantirish hamda maxsus yuklamani o'chirish qurilmasining haqiqiy quvvatlarini aniqlash uchun nazorat o'lchashlarni olib borishni tashkillashtirish;

yagona elektr energetika tizimi va uning qismlarida yangi ob'ektlar kiritish, mavjudlarini kengaytirish hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni ko'rib chiqishda qatnashish, shuningdek, ushbu loyihalar bo'yicha takliflar berish, elektr energetika ob'ektlariga ulanish uchun texnik shartlarni ko'rib chiqish va kelishish;

b) yagona elektr energetika tizimi tarkibiga kiruvchi korxonalarning dispetcherlik boshqaruvini amalga oshirish sohasida:

yagona elektr energetika tizimidagi elektr energetika ob'ektlarida tezkor-dispetcherlik bo'ysunuvini aniqlash va uni qayta ko'rib chiqish;

Markaz va uning mintaqaviy boshqarma va hududiy bo'limlari tezkor bo'ysunuvida bo'lgan elektr energetika ob'ektlarining asosiy va yordamchi qurilmalarini yillik va oylik mukammal va joriy ta'mirlash jadvallarini ko'rib chiqish va kelishish;

Markaz dispetcheri bo'ysunuvi yoki qaramog'ida bo'lgan rele himoya hamda avariyaga qarshi avtomatika, chastota va quvvatni avtomatik rostlash va dispetcherlik-texnologik boshqaruv vositalari qurilmalarining profilaktika va tiklash bo'yicha yillik ish rejalarini ishlab chiqishda qatnashish va "Energiya" KDM dispetcheri bo'ysunuvi yoki qaramog'ida bo'lgan rele himoya hamda avariyaga qarshi avtomatika, chastota va quvvatni avtomatik rostlash va dispetcherlik-texnologik boshqaruv vositalari qurilmalari rejalarini muvofiqlashtirish;

magistral elektr tarmoqlari, elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalari va elektr tarmoq xo'jalik ob'ektlari tezkor-dispetcherlik xizmatlarining bevosita bo'ysunuvchi xodimlari ustidan yagona elektr energetika tizimi elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalarida mavjud talablarga muvofiq elektr tarmoq inshootlari asosiy uskunalarini yoqish va o'chirish, kommutatsion apparatlarning mavjud yo'riqnomaga mosligi, kunlik jadvaldan chiqish holatlarida elektr energiya ishlab chiqarish korxonalari energobloklarining yuklamasini o'zgartirish, kuchlanish va chastotani rostlash, qaynoq zaxirani joylashtirish masalalari bo'yicha harakatlarini boshqarish;

"Energiya" KDM tezkor boshqaruvi yoki qaramog'ida bo'lgan uskunalarda hamda rele himoyasi va avtomatika qurilmalari zanjirlarida qayta ulash operatsiyalarini bajarish;

Markaz va "Energiya" KDM tezkor bo'ysunuvi yoki qaramog'ida bo'lgan elektr energetika ob'ektlari elektr qurilmalarini rele himoya va avtomatika uskunalari bilan jihozlanganligi hamda ularning o'rnatmalarini sozlanishi ustidan nazorat olib borish hamda tezkor-texnik rahbarlikni amalga oshirish;

Markaz va "Energiya" KDM tezkor boshqaruvi yoki qaramog'idagi tarmoqlardagi releli himoya va avtomatika qurilmalari ishlashini doimiy tahlil qilish;

"Energiya" KDM va ichki ko'rsatmalarga muvofiq rele himoya va avtomatika qurilmalari ishlashini nazorat qilish;

elektr energetika ob'ektlari uchun tezkor-dispetcherlik boshqaruvi hamda elektr energetika tizimidagi avariyalarni oldini olish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

elektr energetika ob'ektlari tomonidan taqdim etilgan asosiy uskuna hamda rele himoya va avtomatika qurilmalari sinov dasturlarini kelishish;

tezkor-dispetcherlik boshqaruvi sohasidagi normativ hujjatlarga asosan chastotani rostlashda ishtirok etish;

tezkor-dispetcherlik boshqaruvi sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq Markaziy Osiyo Birlashgan elektr energetika tizimi asosiy tarmog‘ining nazorat nuqtalarida kuchlanish qiymatlarini aniqlash va uni tartibga solishda qatnashish;

tezkor-dispetcherlik boshqaruvi, shuningdek, rele himoya va avariyaga qarshi avtomatika qurilmalarini ekspluatatsiya qilishning muammoli masalalarini hal qilish uchun zarur tadqiqotlarni tashkil qilish, shuningdek, ushbu masalalarni hal qilishda ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etish;

elektr energetika ob’ektlari tomonidan taqdim etilgan yagona elektr energetika tizimining asosiy uskunalarini sinovdan o‘tkazish dasturlarini ko‘rib chiqish va ushbu sinovlarni o‘tkazishda rahbarlik qilish;

elektr energiyasini cheklash va uzib qo‘yish jadvallarini joriy etish tartibini belgilash;

elektr stansiyalari va tarmoqlarining asosiy uskunalarini, energetika tizimi sub’ektlarining rele himoya va avariyaga qarshi avtomatika qurilmalarini, dispetcherlik-texnologik boshqarish vositalarini ta’mirga chiqarishga buyurtmanomalarini, energetika tizimi rejimlarini hisobga olgan holda, ko‘rib chiqish;

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi, magistral va hududiy elektr tarmoqlari korxonalarining buyurtmanomalari asosida elektr stansiyalari va elektr tarmoqlarining asosiy uskunalarini, dispetcherlik-texnologik boshqarish vositalarini, releli himoya va avtomatika qurilmalarini ta’mirga va zaxiraga chiqarish ustidan tezkor-dispetcherlik rahbarlikni amalga oshirish;

elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning ayrim generatorlari, tizimning ichki bog‘lanishlari va ayrim tugunlari uchun normal va ta’mir rejimlari bo‘yicha statik va dinamik turg‘unlik hisob-kitoblarini amalga oshirish, avariyaga qarshi avtomatikaga rejim talablarini, o‘rnatmalarini ishlab chiqish, shuningdek, ularni joriy etish uchun elektr energetika tizim korxonalariga topshiriqlar berib, bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

yagona elektr energetika tizimida mavjud avtomatik chastotaviy yuksizlantirish quvvatlari hajmini aniqlash va kelishish;

v) elektr energiyasiga bo‘lgan talab va takliflardan kelib chiqib, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilinishiga ta’sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olgan holda uni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning rejimini shakllantirish sohasida:

elektr energiyasi iste’moli prognoziga binoan yagona elektr energetikasi iste’molchilari uchun kelgusi kunga soatlik yuklama jadvallarini ishlab chiqish;

yagona elektr energetika tizimiga ulangan elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalariga elektr energiyasi iste’moli talabidan kelib chiqib, kelgusi kunga barcha omillarni hisobga olgan holda soatlik yuklama jadvallarini ishlab chiqish;

e) energetika va irrigatsiya ehtiyojlaridan kelib chiqib daryo oqimlaridan to‘la va samarali foydalanish maqsadida gidroelektr stansiyalari ish rejimlarini ishlab chiqish;

elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalarni, ularni texnik-iqtisodiy xarakteristikalaridan kelib chiqqan holda, berilgan yuklama grafiklariga asosan o‘z vaqtida ishga qo‘yish va ishdan to‘xtatishni ta’minlash;

g) yagona elektr energetika tizimining texnik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul rejimlarda ishlashini ta’minlash sohasida:

yuklamani elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida iqtisodiy maqbul ravishda taqsimlash;

yagona elektr energetika tizimining aktiv va reaktiv quvvatlar bo‘yicha optimal rejimini ta’minlash;

suv trakt rejimi tezkor boshqaruvini amalga oshirish, Chorvoq suv omborini to‘ldirish va ishlatish jadvallarini tuzish va yil davomida uning bajarilishi ustidan rahbarlikni amalga oshirish;

irrigatsiya va elektr energiyasi ehtiyojlaridan kelib chiqib, daryo oqimlaridan to‘liq va samarali foydalanish maqsadida gidroelektrostansiyalar (bundan buyon matnda GES) ish rejimlarini ishlab chiqishda qatnashish;

gidrotexnik rejimlar bo‘yicha hisob-kitoblar va dasturlarni ko‘rib chiqish hamda kelishish (gidroenergetik traktlarni bo‘shatilishi, to‘ldirilishi, suv omborlarini ishlatilishi va boshqalar);

yagona elektr energetika tizimining turli ish holatlari uchun, shu jumladan, yangi ishga kiritilayotgan, Markaz tezkor bo‘ysunuvida yoki qaramog‘ida bo‘lgan ob’ektlarni asosiy sxemalari elektr rejimlarini hisoblash;

elektr stansiyalari, podstansiyalari, elektr uzatish liniyalarining asosiy uskunalari, releli himoya, avariyaga qarshi avtomatika, yagona elektr energetika tizimi sub’ektlarining, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, texnologik boshqarish tizimlarining joriy ta’mirlashga chiqarish grafiklarini kelishish, ta’mirlash rejalarini optimallashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

d) qo‘shni davlatlarning energotizimlari bilan parallel ishlash rejimlarini boshqarish sohasida:

Markaziy Osiyo birlashgan elektr energetika tizimining parallel ishlashini tartibga soluvchi hujjatlarning ishlab chiqish bo‘yicha yig‘ilishlarda qatnashish;

chegaradosh davlatlarning energetika tizimlari bilan parallel ishlash, shu jumladan, ularning dispetcherlik markazlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish masalalari bo‘yicha Markaziy Osiyo Koordinatsion Kengashi ishlarida ishtirok etish;

“Energiya” KDM tomonidan tizimlararo elektr energiyasi oqimlari va quvvat rostlash bo‘yicha taqdim etilgan tezkor va yakuniy hisobotlarni tahlil va nazorat qilish;

yilning muayyan davrlari uchun yagona elektr energetika tizimining quvvat balansini ishlab chiqishda ishtirok etadi hamda elektroenergetika tizimi bo‘yicha yillik hisobot uchun ma’lumotlarning tayyorlanishini nazorat qilish;

Markaziy Osiyo Birlashgan Energetika tizimi tarkibiga kiruvchi energetika tizimlari bilan sutkalik va yillik quvvat oqimlari grafigini tuzish;

yagona elektr energetikasi tizimining ishonchlilik mezonlari asosida chegaradosh davlatlarning energetika tizimlari bilan parallel ishlash, shu jumladan, ularning dispetcherlik markazlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibini ishlab chiqishda qatnashish;

ye) Markaz xodimlarini doimiy ravishda xorijda malaka oshirishini ta’minlash hamda malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish sohasida:

xodimlarni rivojlangan xorijiy davlatlarda o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkillashtirish;

mutaxassislarning malakasini oshirish doirasida rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarga tayangan holda maxsus kurslarda, shu jumladan, chet el davlatlarda o‘qitishni tashkillashtirish;

Markaz tarkibidagi xodimlarining tasdiqlangan jadvallar bo‘yicha bilimlarini tekshirishni nazorat qiladi va uni amalga oshirish;

yagona elektr energetika tizimidagi podstansiyalar boshqaruvini avtomatlashtirish, ob’ektlar va korxonalarda teleboshqaruv funksiyalarini joriy etish ustidan nazorat qilish;

xorijiy davlatlar tezkor-dispetcherlik boshqaruvining eng yaxshi amaliyotlarini, shuningdek, rele himoya hamda avariyaga qarshi avtomatika qurilmalari ishlatishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish, tarqatish va ularni amalga oshirishda yordam berish;

yo) avariya rejimlari yuzaga kelishini oldini olish, bartaraf etish va avariya rejimi bartaraf etilganidan keyin tizimning ishonchliligini tiklash sohasida:

yagona elektr energetika tizimida Markaz va uning mintaqaviy boshqarma va hududiy bo‘limlarning tezkor boshqaruvida yoki qaramog‘ida bo‘lgan elektr qurilmalaridagi avariya rejimlarni bartaraf etishda va avariyadan keyingi rejimlarni tiklashda rahbarlik qilish;

avariyalarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalarga muvofiq Markaziy Osiyo birlashgan energetika tizimida yoki yagona elektr energetika tizimida favqulodda (avariya) vaziyatlarni bartaraf etish;

yagona elektr energetika tizimiga ulangan korxona va tashkilotlar Markazning topshirig‘iga asosan avariya holatlarning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalarini ta’minlash;

avariyaga qarshi avtomatikani joriy etish loyihalarini amalga oshirishda hamda energetika tizimi ish rejimlarini hisoblash usullari va texnik vositalarini ishlab chiqish, tatbiq etish va rivojlantirishda ishtirok etish;

avariya holatlarini tekshirishda hamda avariya sodir bo‘lishini oldini olish chora-tadbirlar ishlab chiqishda ishtirok etish;

yagona elektr energetika tizimida avariyaviy rejimlar, elektr quvvati va energiya tanqisligi paydo bo‘lganda dastlab Hududiy elektr tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan va mahalliy hokimiyat bilan kelishilgan cheklov jadvallariga asosan cheklovlar kiritish bo‘yicha topshiriqlar berish;

yagona elektr energetika tizimi tarkibiga kiruvchi energetika ob’ektlarida texnologik nosozliklarni va baxtsiz hodisalarni tekshirishda qatnashish, ularni oldini oluvchi chora-tadbirlarni kelishishda ishtirok etish;

Markaziy Osiyo birlashgan elektr energetikasi tizimida sodir bo‘lgan avariyalarni tahlil qilishda qatnashish;

yangi ishga kiritiladigan va rekonstruksiya qilinadigan elektr tarmoq ob’ektlari bo‘yicha loyihalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, loyihalarni va ishga tushirish sxemalarini kelishish;

yagona elektr energetika tizimi ob’ektlaridagi va korxonalaridagi rele himoya va avariyaga qarshi avtomatika qurilmalarining ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni tashkillashtirish;

energetika tizimining asosiy uskunalari va elektr tarmoqlari, rele himoyasi, avariyaga qarshi avtomatika va aloqa qurilmalarining ishga tayyorligini nazorat qilishni amalga oshirish hamda rele himoya qurilmalarining sxemalarini va ularning parametrlarini kelishish;

o‘zining xizmat ko‘rsatish hududiga kirgan, elektr tarmoqlarini mustahkam ishlashi hamda iste’molchilarni shartlangan uzluksiz elektr energiya ta’minotini amalga oshrish, elektr tarmoqlar rejimlarini ishlab chiqish va yuritish;

elektr qurilmalar va tarmoqlarga xizmat ko‘rsatishda, shuningdek iste’molchilarga elektr energiyasini uzatishda yuqori tejamkorlikni ta’minlash;

o‘z xizmat doirasidagi barcha elektr tarmoqlarida yuklanishni taqsimlanishi bo‘yicha tezkor dispetcherlik boshqaruvni olib borish hamda uni yaxshilash buyicha takliflar berish;

quvvat va elektr energiyasi bo‘yicha topshiriq rejalarini iste’molchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

iste’molchilarning ishonchli elektr ta’minoti sxemalarini ushlab turish va uni o‘zgartirish;

elektr energiyasi va quvvat iste’moli topshirig‘ining bajarilishini ta’minlash;

o‘zining xizmat kursatish hududiga kirgan elektr qurilmalarining meyoriy bir chiziqli sxemasini ishlab chiqish va zaruriyatga qarab ularga o‘zgartirishlar kiritish;

elektr energetikasi ob’ektlarida iste’molchilarning elektr ta’minoti uzilishlari va avariyaga qarshi avtomatika qurilmalarining ishlashi bilan bog‘liq favqulotda holatlarni tizim korxonalari bilan birgalikda tekshirib tahlil qilish;

o‘zining tezkor boshqaruvida yoki qaramog‘ida bo‘lgan elektr qurilmalarini mukammal va joriy tamirga chiqarish uchun tegishli tizim korxonalar tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqarish xizmatlari (nimstansiyalar xizmati, yuqori kuchlanishli tarmoqlar xizmati, rele himoya va avtomatika xizmati, dispetcherlik va texnologik boshqaruv vositalari xizmati, o‘ta kuchlanishdan himoya qilish va izolyatsiyani sinash xizmati) ning oylik ish rejalari bo‘yicha buyurtmalarni olib, ko‘rib chiqish va ish tashkil etish:

Markaz mintaqaviy boshqarma va hududiy bo‘limlari tezkor boshqaruvida yoki qaramog‘idagi elektr qurilmalariga yangi ishlab chiqarish yoki iste’molchilarni ulanishi yoki sinashida dasturlarga asosan rahbarlik qilish;

13. Markaz faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirishi mumkin.

III. MARKAZ FAOLIYATINI BOSHQARISH

14. Markaz o‘z faoliyatida qonun talablariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

15. Markaz Muassisga amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan hisobot beradi.

16. Muassis qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

- faoliyatining maqsadlari, predmeti va turlarini belgilash;
- nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Markaz Direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatidan oldin to‘xtatish;

Markazni qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida takliflar kiritish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;

Markazning ortiqcha, foydalanilmayotgan yoxud boshqa maqsadda foydalanilayotgan mol-mulkini olib qo‘yish va uni tasarruf etish;

Markazga berilgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan sof foydaning bir qismini yoki hammasini olish;

Markaz mol-mulki bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb e’tirof etish to‘g‘risida sudga da’vo bilan murojaat qilish.

Markaz nizomning 25 va 26 bandlarini inobatga olgan holda moliyaviy yil yakunlangach olti oydan kech bo‘lmagan muddatda taqsimlanadigan davlat muassasi sof foydasining qismini olishga. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga sof foydaning qonunchilikda belgilangan ajratmalarini yo‘naltirishi mumkin.

17. Muassis quyidagilarga majbur:

Markaz direktorini tayinlash, mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u bilan mehnat shartnomasini tuzishi;

Markaz davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab uch oy mobaynida korxonaning nizom fondini unga davlat mulkini tezkorlik bilan boshqarish uchun berish yo‘li bilan shakllantirish;

Markazning direktoriga mulkni tasarruf etish uchun ruxsatnomalar berish to‘g‘risidagi qarorni tegishli ravishda kelishish;

Yillik daromadlar va harajatlar smetasini tasdiqlash choralarini ko‘radi;

Markazga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanilishini va saqlanishini, shuningdek uning begonalashtirilishini nazorat qilish.

IV. Quyidagilar Markazni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

18. Markazni joriy saqlab turish, yuklatilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish hamda uning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash uchun ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari;

shartnoma asosida ishlar va xizmatlarni bajarishdan keladigan tushumlar;

xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

19. Xo‘jalik hisobidagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek, homiylik xayriyalari hisobiga xarid qilingan mol-mulk va mablag‘lar Markaz mulki hisoblanadi.

V. MARKAZNING MOL-MULKINI TASARRUF ETISH

20. Tezkor boshqarish huquqi bilan Muassis tomonidan Markazga biriktirilgan mulk va aylanma mablag‘lar korxonaning mol-mulkini tashkil etadi.

21. Muassis Markazga berilgan davlat mulkining o‘z vazifasiga ko‘ra foydalanilishi va saqlanishi, shuningdek o‘zgaga berilishi ustidan nazorat qiladi.

22. Markaz mulkini tasarruf etish quyidagi hollarda direktor tomonidan Muassis bilan kelishgan holda hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi:

asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga topshirish;

mulkni xo‘jalik jamiyati nizom fondiga ulush sifatida qo‘shish;

xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari (ulushlari)ni sotib olish;

xo‘jalik jamiyatlaridagi Korxonaga tegishli aksiyalar (ulushlar)ni sotish;

mulkni Markaz faoliyati maqsadlariga muvofiq bo‘lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

Bunda bino va inshootlarni (shu jumladan qurilishi tugallanmaganlarni) sotish O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Bino va inshootlarni (shu jumladan qurilishi tugallanmaganlarni) sotishdan tushgan mablag‘lar, ularni sotib olish manbalaridan qat’i nazar, davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag‘lar tarzida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan taqsimlanadi.

VI. DAROMAD (FOYDA)NI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI

23. Barcha soliqlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan keyin qoladigan sof foyda Markaz tasarrufida qoladi va Muassisning qarori bo‘yicha foydalaniladi yoki dividend shaklida to‘lab berilishi mumkin.

24. O‘zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunga muvofiq yilda bir marotaba yil yakunlangandan so‘ng kechi bilan 15 iyungacha tashqi auditorlik tekshiruvidan o‘tkaziladi.

25. Markazning xo‘jalik faoliyati natijasida kelib chiqqan zararlarni qoplash ushbu maqsadlarda tashkil etilgan zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

VII. ZAXIRA JAMG‘ARMASI VA BOSHQA JAMG‘ARMALARNI TASHKIL ETISH TARTIBI

26. Markaz o‘z tasarrufida qoladigan sof foyda hisobiga zaxira jamg‘armasini, shuningdek miqdori va shakllantirish tartibi Muassis tomonidan tasdiqlanadigan boshqa jamg‘armalarni tashkil etishi mumkin.

Asosiy vositalarni qayta baholash summasi va bepul olingan mol-mulk qiymati ham zaxira jamg‘armasini to‘ldirishga yo‘naltiriladi.

VIII. MARKAZ DIREKTORINING HUQUQLARI, MAJBURIYaTLARI VA JAVOBGARLIGI

27. Markazga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Direktor boshchilik qiladi.

Markaz direktori Energetika vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan 3 nafar o‘rinbosarga ega.

Markaz direktori Energetika vazirligi hay’ati tarkibiga kiradi.

28. Markaz direktori bo‘lmagan davrda uning barcha vakolatlarini ijro etish direktorning birinchi o‘rinbosari tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri Muassisning yozma buyrug‘isiz amalga oshiradi.

29. Markaz xodimlari maqomi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi xodimlarining tegishli toifalariga tenglashtiriladi.

30. Markaz departamenti hamda hududlardagi mintaqaviy dispetcherlik boshqarmasi va hududiy bo‘limlarning boshliqlari Energetika vazirining o‘rinbosari bilan kelishilgan holda Markaz direktorining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

31. Markazdagi lavozimlarga tayinlov bo‘yicha nomzodlarga bo‘lgan talablar Markaz tomonidan ishlab chiqilgan lavozim yuriqnomalari bilan belgilanadi.

32. Markaz direktori:

yakkaboshchilik qiladigan ijro etuvchi organi rahbari hisoblanadi;

Markaz nomidan ishonchnomasiz ish ko‘radi, tovar, ish-xizmatlarni olish yoki berishda ishonchnomasiz harakatlanadi. O‘zbekiston Respublikasi va xorijning barcha korxonalari, firmalari va tashkilotlarida uning manfaatlarini ifodalaydi;

xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalari tuzadi, ularni kasaba uyushmasi bilan kelishgan holda o‘zgartiradi va to‘xtatadi;

Markaz xodimlarining shtat bo‘yicha soni va ularning ish haqi miqdorlari rahbar tomonidan muassis bilan kelishgan holda tasdiqlash choralarni ko‘radi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;

kadrlarni tayyorlash va o‘qitish, ularning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘radi;

Markazning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqaradi, ko‘rsatmalar beradi;

amaldagi qonun hujjatlariga asosan xodimlarni rag‘batlantirish va mukofotlash choralarini ko‘radi;

Markazning ichki tartib-qoidasi va xo‘jalik faoliyatini tartibga soladigan hujjatlarni tasdiqlaydi;

Markazning xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

33. Direktor o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarni bajarishda Markaz manfaatlarini ko‘zlab ish ko‘radi.

34. Direktor byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to‘lov o‘z vaqtida to‘lanishi, ish haqi to‘lanishi, mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar qondirilishi, bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ehtiyojlar uchun pul mablag‘lari o‘tkazilishi, o‘zining xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan Markazga yetkazilgan zarar, shu jumladan, Markazga berilgan davlat mulki yo‘qotilgan holat uchun ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

IX. HISOBOTLARNI TUZISH TARTIBI

35. Markaz amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari yoki moliyaviy hisobotlarning halqaro standartlariga asosan olib boradi. Hisobot davri tamom bo‘lgandan keyin qonun hujjatlarida belgilangan vakolatli organlarga moliyaviy hisobotni va boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Moliyaviy hisobot bilan birgalikda auditorlik hulosasi bilan birgalikda e’lon beradi hamda hujjatlarning saqlanishi va ularning davlat tomonidan saqlash uchun belgilangan tartibda berilishi uchun javob beradi.

36. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida Markaz faoliyatini nazorat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Muassis va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

X. MARKAZNING JAVOBGARLIGI

37. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Markaz rahbariyati va uning xodimlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishi uchun tegishli tartibda javobgarlikka tortiladi.

38. Markaz direktori ushbu Nizom talablariga muvofiq boshqaruvning barcha faoliyat turlari uchun javobgardir.

39. Markaz o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi. Markazning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda Muassis davlat muassasasining majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javob beradi.

40. Markaz Muassisning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

XI. MARKAZ FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

41. Markaz Muassis bilan kelishgan holda, qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida, ham uning tashqarisida yuridik shaxs tashkil etmasdan filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularni belgilangan tartibda yopishi mumkin.

42. Markazning filiallari va vakolatxonalari korxona tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida Markaz nomidan ish ko‘radi.

43. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan vakolatxonalar va filiallar Markaz tomonidan tasdiqlangan nizom asosida va o‘zlari joylashgan mamlakatlarning qonun hujjatlariga muvofiq ish ko‘radilar.

44. Markaz filiali yoki vakolatxonasi rahbari Markaz direktori tomonidan muassis bilan kelishgan holda tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko‘rsatadi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, filial yoki vakolatxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilgan taqdirda, ishonchnoma davlat muassasasining muassisi rahbari tomonidan bekor qilinadi.

XII. MARKAZ TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH

45. Markaz qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi mumkin.

46. Markazning tugatilishi huquq va majburiyatlar huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o‘tmasdan Markaz faoliyati to‘xtatilishiga olib keladi, qayta tashkil etishda huquq va majburiyatlar huquqiy vorisga o‘tadi.

Markaz muassisi: _____